

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№8

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
283 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi.....	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами.....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в россию.....	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari	200
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Восстановление геологических сигналов с использованием кубических базисных сплайнов.....	204
Гофуржонов Мухаммадали, Гофуржонова Маржона	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy jihatlari	210
Madaminov Bekzod Allayarovich	
Aholi moliyaviy savodxonligini moliyaviy siyosat instrumentlari orqali oshirish imkoniyatlari	215
Irgashev Anvar Farxodovich	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar.....	220
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Sanoatni rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida).....	224
Salayev Jasurbek Komilovich	
Tijorat banklari raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida qo'llanilishi.....	230
Shamsiyev Nurbek Fazliddin o'g'li	
Mamlakatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish dastaklari	237
Raxmonov Lochin To'xtamishovich	
Theoretical principles of cluster formation in metallurgical industry enterprises.....	243
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Трансграничные денежные переводы в Республику Узбекистан и благосостояние граждан	250
Садыков Азиз Миршапович	



Tashkilot boshqaruv samardorligini oshirishning xorij tajribasi	254
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
Xizmatlar sohasining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida)	261
Sheraliyev Axror Sodikovich	
Зависимость оптимального тока и коэффициента полезного действия термопреобразователя от геометрии ветвей термоэлемента	266
Норбутаев Маъсуджон Абдурасулович	
Potential GDP Estimation and Output Gaps: Insights from Cross-Country Studies and Applications to Developing Economies.....	272
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanishning ahamiyati	276
Davranbek Axmatov, Hikmatullo Nasrullaev	

SUD-HUQUQ TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Davranbek Axmatov

“PraeLegal” advokatlik firmasi advokati

Hikmatullo Nasrullaev

“REAL SOFT” MChJ Bosh direktori

<https://orcid.org/0009-0006-2177-2052>

Annotatsiya: Sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanish zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari sud ishlarini yuritishda shaffoflik va tezkorlikni ta'minlash, ish jarayonidagi byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda odil sudlovni amalga oshirishda inson omillari ta'sirini kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, yuridik hujjatlarni tahlil qilish, sud amaliyotini o'rganish, xatarlarni prognoz qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida sudya hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt sud jarayonlarida adolatni ta'minlashda yordamchi vosita sifatida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, korrupsiya xavfini kamaytirish, shu bilan birga sud-huquq tizimiga ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, sun'iy intellektdan samarali foydalanish nafaqat huquqiy jarayonlarni optimallashtiradi, balki inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Sud-huquq tizimi, sun'iy intellekt, samaradorlik, odil sudlov, axborot texnologiyalari, huquqiy jarayonlar, shaffoflik, tezkorlik, korrupsiyani oldini olish, inson huquqlari, huquqni muhofaza qilish organlari.

Abstract: The effective use of artificial intelligence in the judicial system is one of the important directions of development of modern information technologies. Artificial intelligence technologies allow to ensure transparency and speed in the conduct of legal proceedings, reduce bureaucratic obstacles in the work process, and reduce the influence of human factors in the implementation of justice. They also effectively support the activities of judges and law enforcement agencies in the analysis of legal documents, study of judicial practice, forecasting risks, and decision-making processes.

In addition, artificial intelligence, as an auxiliary tool in ensuring justice in judicial proceedings, serves to protect the rights and interests of citizens, reduce the risk of corruption, and at the same time increase confidence in the judicial system. Thus, the effective use of artificial intelligence not only optimizes legal processes, but also appears as an important factor in ensuring human rights and freedoms.

Keywords: Judicial system, artificial intelligence, efficiency, justice, information technology, legal processes, transparency, speed, prevention of corruption, human rights, law enforcement agencies.

Аннотация: Эффективное использование искусственного интеллекта в судебной системе является одним из важных направлений развития современных информационных технологий. Технологии искусственного интеллекта позволяют обеспечить прозрачность и скорость проведения судебных разбирательств, сократить бюрократические препоны в работе и снизить влияние человеческого фактора на осуществление правосудия. Они также эффективно поддерживают деятельность судей и правоохранительных органов при анализе правовых документов, изучении судебной практики, прогнозировании рисков и принятии решений.

Кроме того, искусственный интеллект, являясь вспомогательным инструментом обеспечения правосудия в судебном процессе, служит защите прав и интересов граждан, снижению риска коррупции и одновременно повышению доверия к судебной системе. Таким образом, эффективное использование искусственного интеллекта не только оптимизирует судебные процессы, но и выступает важным фактором обеспечения прав и свобод человека.

Ключевые слова: Судебная система, искусственный интеллект, эффективность, правосудие, информационные технологии, судебные процессы, прозрачность, скорость, предотвращение коррупции, права человека, правоохранительные органы.



KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonida sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bir davrda, ularni huquqiy sohada qo'llash sud ishlarini yuritishda samaradorlikni oshirish, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt tizimlari orqali katta hajmdagi huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, sud amaliyotidagi o'xshash ishlarni solishtirish, qaror qabul qilish jarayonida sudyalarga yordam ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, bir tomondan, sud-huquq tizimida adolat va shaffoflikni ta'minlash, boshqa tomondan, jarayonlarning tezkorligini oshiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari korrupsion omillarni kamaytirish, sud jarayonlarida taraflar uchun teng sharoit yaratish va odil sudlovni ta'minlashda yordamchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, sun'iy intellektdan samarali foydalanish nafaqat sud-huquq tizimini optimallashtirish, balki jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishda ham muhim o'rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Susskind, R. (2019). Online Courts and the Future of Justice. – Sudlarda onlayn platformalar va sun'iy intellektdan foydalanish kelajagi, sud jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini oshirish imkoniyatlari haqida fikr yuritadi.

Katz, D., Bommarito, M., & Blackman, J. (2017). A General Approach for Predicting the Behavior of the Supreme Court of the United States. – Sun'iy intellekt yordamida sud qarorlarini prognoz qilish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Hilty, R. & Liu, K. (2021). Artificial Intelligence and the Judiciary. – Yevropa Ittifoqida sud-huquq tizimida AI qo'llanilishi, afzalliklari va xavf-xatarlari yoritilgan.

Stepashin, S. V. (2020). Tsifrovoy sud i perspektivy razvitiya pravosudiya v Rossii. – Rossiyada "raqamli sud" konsepsiyasi va unda AI qo'llanilishi bo'yicha tajribalar ko'rsatiladi.

Zhang, Y. & Chen, H. (2022). Artificial Intelligence in China's Judicial System. – Xitoy sud tizimida sun'iy intellektdan foydalanish, ishlarni saralash va avtomatik tahlil qilish bo'yicha ilmiy qarashlar bayon etilgan.

F.S. Kortikov (2023) ta'kidlashicha axborot resurslarini integratsiyalash usullarini ishlab chiqish axborot tizimlari sohasidagi eng dolzarb muammolardan biridir. So'nggi yillarda ma'lumotlar manbalarining yuqori darajada turli xilligi tufayli u ayniqsa katta e'tiborni jalb qila boshladi. Har xil turdagi elektron hujjatlarning mavjudligi elektron hujjat aylanish tizimini juda dolzarb axborot tizimiga aylantirdi. Olim mavjud elektron hujjat aylanish tizimlarini tahlil qilgan va elektron hujjat aylanish tizimlarining tasnifini tuzgan. Elektron hujjat aylanishi tizimining ishlashi uchun asosiy tamoyillar va talablarni aniqlagan. Ilmiy ish doirasida sohasining strukturaviy modelini yaratgan. Strukturaviy modelning birgalikda ishlashini miqdoriy baholashni ta'minlaydigan raqamli usullar va tegishli algoritmlarni ishlab chiqqan.

A.P. Stolbovning (2020) fikricha elektron hujjat aylanishi – bu me'yoriy–huquqiy hujjatlar, standartlar asosida elektron hujjatlarni bulutli texnologiyalarda saqlash, qabul qilish va yuborish. Shuningdek, ularni aloqa tarmoqlari orqali ishonchli va xavfsiz yuborilishini ta'minlashdan iborat.

Jo'rayev, A. (2022). Sud tizimida raqamlashtirishning huquqiy asoslari. – Milliy sud tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha huquqiy baza masalalari o'rganilgan.

Qodirov, M. (2023). Sun'iy intellektning sud-huquq tizimidagi afzalliklari va muammolari. – O'zbekistonda AI texnologiyalarini qo'llashdagi ustuvor yo'nalishlar va cheklovlar yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanishning ahamiyatiga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda jahonda raqamlashtirish jarayoni tez sur'atlarda rivojlanib, xorijiy davlatlar va mamlakatimizning davlat boshqaruvi, iqtisodiyotining turli jabhalarida, shu jumladan sud-huquq tizimida ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, buni zamon shiddati talab ham etmoqda.

Xususan, sun'iy intellekt tizimlari inson huquqlarini himoya qilish sohasida, surishtiruv va dastlabki tergov hamda sudda adolatni ta'minlashda, odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini oshirishda, ishlarni ko'rib chiqish jarayonini tezlashtirish hamda soddalashtirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Sun'iy intellektning sud-huquq sohasiga ko'proq jalb etilishi sohadagi mavjud muammolarni hal qilishga, inson omilisiz muayyan masalalarda qaror qabul qilishga, odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, surishtiruv, dastlabki tergov va sudning har qanday bosqichida protsess (jarayon) ishtirokchilariga, xususan sudyalari, prokurorlar, tergovchilar, advokatlarga va boshqa ishtirokchilarga yordamchi sifatida ulkan imkoniyatlar yaratadi. Vaholangki, sun'iy intellekt yuqori samaradorlik va aniqlikda ishlashi bilan inson tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni oldini oladi va yuqori tezlikda hujjatlarni tahlil qilishi orqali ish samaradorligini oshirishi bilan inson imkoniyatlaridan ustun turadi.

Ammo, sun'iy intellekt sud-huquq sohasining barcha bo'g'inlarida, jabhalarida va sohalarida ham inson o'rnini bosa olmaydi, aksincha sun'iy intellekt unga asosiy yordamchi bo'la oladi! Sud huquq sohasida har doim tanqidiy fikrlash, ichki sezgi va ishonch, ijodiy yondashuv, taktik jihatdan tergov va himoya strategiyalari, pozitsiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashning vaqti, joyi kabi masalalarda inson omili ustunlik qilib qoladi. Darhaqiqat, aynan shu sohalarida ham oxirgi so'zni aytish va qaror qabul qilish ma'suliyatini insonga ishongan va qoldirgan holda sun'iy intellektning yordami beqiyos bo'lishi mumkin. Xususan, sun'iy intellektning afzalliklariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, birinchi navbatda biz uning yuqori samaradorligi va aniqligini ko'rishimiz mumkin!

Samaradorlik va aniqlik

Sun'iy intellekt katta hajmdagi huquqiy ma'lumotlarni tez tahlil qiladi va sudya, prokuror, tergovchi hamda advokatlarga zarur huquqiy normalarni izlab topishda yordam beradi. Bu esa:

- Surishtiruv, dastlabki tergov va sud jarayonida vaqtni tejaydi;
- Xatolar ehtimolini kamaytiradi;
- Qonunchilikka aniq va tizimli yondoshuvni ta'minlaydi.

Xorijiy tajriba

Sun'iy intellektning sud-huquq sohasiga ko'proq jalb etilishini rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotida ko'plab kuzatish mumkin va sun'iy intellektni qo'llanish ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda.

Xususan:

• Estoniya - ayrim kichik talabdorlik da'volarini ko'rib chiqish uchun "onlayn sudya" sifatida sun'iy intellektidan foydalanmoqda.

• Xitoy - "raqamli sud" platformalari orqali fuqarolik va ma'muriy ishlar yuzasidan elektron tarzda qaror qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

• AQSh va Yevropa - sun'iy intellekt orqali sud precedentlarini tahlil qilish, ehtimoliy sud qarorlari prognozini tayyorlash amaliyoti qo'llanilmoqda.

Sud-huquq tizimida sun'iy intellektidan samarali foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu texnologiyalarni joriy etish nafaqat jarayonlarni tezlashtiradi, balki odil sudlovning shaffofligi va fuqarolarning sud tizimiga ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

AQSh tajribasi. AQSh sud tizimida sun'iy intellekt, asosan, huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish, jinoyatchilik ehtimolini prognozlash va sudyalarni ma'lumot bilan ta'minlash jarayonlarida qo'llanilmoqda. Masalan, COMPAS tizimi sudlanuvchilarning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini baholashda keng foydalaniladi. Shu bilan birga, ayrim olimlar bu tizimlarda algoritmik xolislik masalasi dolzarbligini ta'kidlamoqda.

Yevropa Ittifoqi. Yevropada sud-huquq tizimida AI'dan foydalanish etik tamoyillar bilan cheklangan. Masalan, Fransiya va Estoniyada elektron sud platformalari orqali oddiy fuqarolik ishlari sun'iy intellekt yordamida tezkor ko'rib chiqiladi. Estoniyada "raqamli sudya" loyihasi tajriba tariqasida qo'llanilib, kichik da'volar bo'yicha avtomatlashtirilgan qarorlar chiqarilmoqda.

Xitoy tajribasi. Xitoyda "aqlli sudlar" konsepsiyasi jadal rivojlanmoqda. U yerda maxsus mobil ilovalar orqali fuqarolar hujjatlarni onlayn topshirishi, ish jarayonini kuzatishi va sun'iy intellekt yordamida dastlabki huquqiy maslahat olishi mumkin. Sun'iy intellekt tizimlari sud amaliyotini tahlil qilib, o'xshash ishlar bo'yicha qarorlarni sudyalarga tavsiya etadi.

Rossiya tajribasi. Rossiyada "Raqqamli sud" loyihasi doirasida sud hujjatlarini elektron tarzda yuritish va avtomatlashtirilgan tahlil qilish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida sud qarorlarini tahlil qilish va sud statistikasini prognozlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Koreya va Yaponiya. Ushbu davlatlarda sun'iy intellekt asosan huquqiy maslahat berish, sud amaliyotini tahlil qilish va hujjatlarni tezkor tayyorlash jarayonida qo'llanilmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada AI asosida ishlovchi platformalar oddiy fuqarolarga sud jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda yordam bermoqda.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki: Sun'iy intellekt sud-huquq tizimida ko'makchi vosita sifatida muvaffaqiyatli ishlatilmoqda;

Qaror qabul qilish jarayonida AI yakuniy hukm chiqaruvchi emas, balki sudyaga yordam beruvchi tizim sifatida qo'llanilmoqda;



Xolislik, shaffoflik va ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash asosiy tamoyil sifatida belgilangan.

O'zbekiston uchun ahamiyati

Sun'iy intellektni joriy etish va mamlakatimizda surishtiruv, dastlabki tergov hamda sudda adolatni ta'minlashda, odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini oshirishdagi ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

- Sud ishlarini ko'rib chiqishda shaffoflik va ochiqlikni oshirish;
- Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va advokatlar uchun protsessga tayyorlarlik ko'rish va ishtirok etishini osonlashtiradi, hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi va yuzlab jild ish hujjatlarini qisqa muddatda o'rganish, tahlil qilish, ular asosida huquqiy ketma-ketlikdagi harkatlar strategiyasini yaratadi;
- Jismoniy va yuridik shaxslar uchun sudda murojaat qilish jarayonini soddalashtirish;
- Sudyalar yukini yengillashtirish;
- Korrupsiya xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Sud-huquq sohasidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarda kadrlar yetishmovchiligi va qo'nimsizligi davrida, shuningdek tergov organlarida yordamchi tergovchi lavozimi mavjud bo'lmagan va sudlarda cheklangan miqdorda sudya yordamchilari bo'lgan sharoitda ularning ish hajmini kamaytirib qolmasdan, samaradorligini ham oshiradi.

Sun'iy intellektidan foydalanish mumkin bo'lgan qo'shimcha yo'nalishlar, oldimizda turgan vazifalar va amalga oshirilayotgan ishlar

Sun'iy intellekt surishtiruv, dastlabki tergov hamda sudda adolatni ta'minlash, odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini oshirishda sudya, prokuror, tergovchi hamda advokatlarga yordam beruvchi instrument (ish quroli) bo'lishi mumkin. Xususan:

1. Avtomatik hujjat tayyorlash va tekshirish - da'vo arizalari, shikoyatlar, qarz undirish to'g'risidagi talabnomalar, protsessual hujjatlarni shakllantirish, ularni grammatik va huquqiy jihatdan tekshirish.

2. Qonunchilik bazasini intellektual qidirish - katta hajmdagi qonunlar, farmonlar va qarorlardan zarur moddalarni topish, ularning amaldagi holatini aniqlash.

3. Tergov amaliyotini tahlil qilish va prognozi - o'xshash ishlar bo'yicha qabul qilingan ayblov hulosalarini solishtirish, tergovchi va prokurorga kvalifikatsiya hamda ayblov masalasida qaror qabul qilishda qiyosiy tahlil va ehtimoliy natija bo'yicha tavsiya berish.

4. Sud amaliyotini tahlil qilish va prognozi - o'xshash ishlar bo'yicha qabul qilingan sud qarorlarni solishtirish, sudyaga qaror qabul qilishda qiyosiy tahlil va ehtimoliy natija bo'yicha tavsiya berish.

5. Sud va tergov amaliyotini tahlil qilish va prognozi - o'xshash ishlar bo'yicha qabul qilingan ayblov hulosalari va shu ishlar bo'yicha sud qarorlarni solishtirish, advokatga himoya pozitsiyasini belgilashda qiyosiy tahlil va ehtimoliy natija bo'yicha tavsiya berish.

6. Elektron dalillarni tahlil qilish - videoyozuv, audio yoki elektron xatlar, messenger yozishmalari va elektron hujjatlarni avtomatik tahlil qilish, stenogrammasini tayyorlash.

7. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlarini solishtirish orqali ko'rsatuvlardagi o'zaro nomuvofiqliklarni aniqlash va yuzlashtirish tergov harakati bo'yicha ehtimoliy savollarni shakllantirish.

8. Sud muhokamalarida tarjimon xizmatini ko'rsatish - turli tillardagi ishtirokchilar uchun avtomatik sinxron tarjima.

9. Jinoyat-protsessual tahlil - tergov jarayonida jinoyat izlari, aloqador shaxslar va voqealarni tahlil qilish orqali tergovni samarali tashkil etishda yordamchi funktsiya.

10. Korrupsiya xavfini monitoring qilish - sud qarorlari va jarayonlarida shubhali holatlarni tahlil qilish, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini aniqlash.

11. Sud jarayonining onlayn monitoringi va stenogramma tayyorlash - muhokamalarni yozib olib, avtomatik matnga aylantirish va keyin tahlil qilish.

12. Jamoatchilik uchun ochiq ma'lumotlar platformasi - fuqarolar sud amaliyotini izlash, sud qarorlari statistikasini ko'rish uchun qulay portal yaratish.

13. Mediatsiya va yarashuv imkoniyatlari - sudgacha va sud jarayonida taraflarga yarashuv ehtimolini baholab, optimal yechim variantlarini taklif etish.

14. Sud jarayonining vizualizatsiyasi - murakkab ishlar bo'yicha ishtirokchilar va voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni grafik shaklda ko'rsatish.

15. Ish yuritish yuklamasini optimallashtirish - sudya va kotiblarning ish hajmini tahlil qilib, resurslar taqsimotini optimallashtirish.

16. Fuqarolar uchun huquqiy maslahatchi-botlar - sudga murojaat qilish uchun zarur hujjatlar ro'yxatini berish, murojaat qilish jarayonini tushuntirish.

17. Qarorlarni bajarilishini monitoring qilish - sud qarorlarining ijrosini nazorat qilish va kechikishlar yuzasidan ogohlantirish.



18. Sudyalar malakasini oshirish uchun trenajyor - sun'iy intellekt asosida yaratilgan o'quv simulyatorlar orqali sudyalarning malakasini oshirish.

19. Qo'shimcha dalillarni avtomatik aniqlash - ish materiallari asosida yetishmayotgan dalil yoki qo'shimcha ko'rsatmalar kerakligini tavsiya qilishi.

20. Jamoatchilik fikrini tahlil qilish - sud qarorlari va tizim faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlarni tahlil qilib, sud tizimini takomillashtirish uchun ma'lumot berish.

21. Ijtimoiy xavf tahlili - jinoyat ishlarida ayblanuvchi shaxsning sodir etgan qilmishiga qarab ehtimoliy qayta jinoyat sodir etish xavfini sun'iy intellekt modeli orqali baholash.

22. Advokat va prokurorlar uchun yordamchi platformalar - ish materiallari asosida strategiya, himoya yoki ayblov variantlarini sun'iy intellekt taklif qilishi.

23. Xalqaro huquqiy bazalar bilan integratsiya - xalqaro sudlar, arbitraj qarorlari va pretsedentlarini tezkor tahlil qilish.

Sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanishni takomillashtirish yo'llari va vazifalari:

Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash. Sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini aniq belgilovchi qonun va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish. Texnik infratuzilmani rivojlantirish. Sud organlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xavfsiz server tizimlari bilan ta'minlash. Xalqaro tajribani joriy etish. AQSh, Yevropa, Xitoy va boshqa ilg'or mamlakatlar tajribalaridan foydalanib, "raqamli sud" konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish. Sudyalarga yordamchi tizimlar yaratish. Al yordamida hujjatlarni avtomatik tahlil qilish, sud amaliyotidan o'xshash ishlarni topish va sudyalarga tavsiya beruvchi dasturlarni ishlab chiqish. Shaffoflikni oshirish. Elektron sud platformalarini kengaytirish orqali fuqarolarning sud jarayonlarida onlayn ishtirok etish imkoniyatini yaratish. Etik tamoyillarni joriy etish. Sun'iy intellekt qarorlarini inson huquq va erkinliklariga zid bo'lmagan, xolis va adolatli bo'lishini ta'minlash. Korrupsiya xavfini kamaytirish. Al texnologiyalari yordamida sud qarorlarini tahlil qilish va ularni ochiqlik asosida kuzatish orqali inson omiliga bog'liq xatolik va suiiste'mollarning oldini olish.

Asosiy vazifalar:

Sud-huquq tizimida sun'iy intellektni tatbiq etish bo'yicha milliy konsepsiya ishlab chiqish;

Sud organlari xodimlari va sudyalar uchun maxsus tayyorlov va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;

Sun'iy intellektning algoritmik xolisligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;

Elektron sud ish yuritishni keng joriy etish va uning uzluksiz ishlashini ta'minlash;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va sun'iy intellekt dasturlarini mahalliy sharoitga mos holda ishlab chiqish.

Umuman, sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanishni takomillashtirish jarayoni huquqiy, texnik, tashkiliy va ma'naviy-axloqiy choralarning uyg'unligini talab etadi. Bu nafaqat sud faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki odil sudlovning adolatli va shaffof amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda sud tizimida sun'iy intellektni joriy etish nafaqat ish yuritish samaradorligini oshiradi, balki adolatli va shaffof sudlov tizimini ta'minlaydi. Xorijiy tajribani hisobga olgan holda, O'zbekiston sud tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini izchil tatbiq etish sud islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanish nafaqat odil sudlovni ta'minlash, balki sud jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, sud amaliyotida sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida katta hajmdagi huquqiy hujjatlar tahlil qilinmoqda, sud qarorlarini prognoz qilish imkoniyati kengaymoqda, inson omiliga bog'liq xatoliklar kamaymoqda. O'zbekistonda ham sud-huquq tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadallik bilan olib borilmoqda, sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlangan. Biroq, texnologiyalarni tatbiq etishda normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, axloqiy me'yorlarga rioya etish hamda texnik infratuzilmani mustahkamlash zarur.

Takliflar.

Sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan foydalanishni huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun maxsus qonuniy asoslar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish. Sud qarorlarini qabul qilish jarayonida sun'iy intellekt faqat yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi, yakuniy qarorni esa inson – sudya qabul qilishi tamoyilini qat'iy belgilash. Sud-huquq tizimida qo'llaniladigan sun'iy intellekt dasturlarida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning kuchli mexanizmlarini joriy etish. Xalqaro tajribalarni o'rganish asosida O'zbekistonda "raqamli sud" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish. Sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun sudyalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun maxsus tayyorlov va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish.



Sud-huquq tizimida AI texnologiyalarini yaratish va qo'llashda korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish. Fuqarolar uchun ochiq va tushunarli elektron platformalar orqali sud jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni – "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son Qarori – "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-maydagi PQ-5117-son Qarori – "Sud-huquq tizimida raqamlashtirish va elektron sud ish yuritishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
4. Кортиков Федор Сергеевич, Разработка комплекса алгоритмов и программ для повышения производительности функционирования электронного документооборота, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Санкт-Петербург-2013, 19 с.
5. Susskind, R. (2019). *Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future*. Oxford University Press.
6. Remus, D., & Levy, F. (2017). Can Robots Be Lawyers? *Computers, Lawyers, and the Practice of Law*. Georgetown Journal of Legal Ethics, 30(3).
7. Ashley, K. D. (2017). *Artificial Intelligence and Legal Analytics*. Cambridge University Press.
8. Aletras, N., Tsarapatsanis, D., Preotjiuc-Pietro, D., & Lamos, V. (2016). Predicting Judicial Decisions of the European Court of Human Rights: A Natural Language Processing Perspective. *PeerJ Computer Science*.
9. Surden, H. (2019). Artificial Intelligence and Law: An Overview. *Georgia State University Law Review*, 35(4).
10. Ministry of Justice of Estonia (2020). *e-Justice in Estonia*. Official Report.
11. Zhang, B. (2021). China's Internet Courts: Towards Digitized Justice. *Computer Law & Security Review*.
12. European Commission (2020). *White Paper on Artificial Intelligence - A European approach to excellence and trust*.
13. U.S. National Center for State Courts (2021). *AI in Courts: Applications and Challenges*.
14. Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Адлия вазирлиги расмий порталлари (қонунчилик ва суд ислохотлари ҳақидаги материаллар).
15. The Economist (2020). *AI in Justice: The Rise of Robot Judges*.
16. Forbes (2021). *How Artificial Intelligence Is Changing the Legal Industry*.
17. BBC Future (2020). *The Promise and Peril of AI in Courts*.
18. Spot.uz, Gazeta.uz, Kun.uz - рақамлаштириш ва суд тизимида оид таҳлилий мақолалар.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100